O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
QURILISH VA UY-JOY KOMMUNAL
XO'JALIGI VAZIRLIGI

"SHAHARSOZLIK
HUJJATLARINI EKSPERTIZA
QILISH RESPUBLIKA
MARKAZI" DMNING
SAMARQAND VILOYATI
BOSHQARMASI

703003, Samarqand shahri, Ko'ksaroy maydoni-1 "D" bino 2-qavat, Tel/Faks: 71-203-11-04, E-mail: sam.expert@bk.ru, new-ekspertiza.mc.uz

Holati: Ijobiy
Boshqarma boshlig`i: Djamankulov Shodiyor Kuchkarovich
Sana: 03-08-2024 yil

YIG'MA EKSPERT XULOSASI

213346 - SONLI

Obyekt nomi: Samarqand viloyati Payariq tumani Bunyodkor mahallasi hududida joylashgan "SAFAROV OLIM SAVDO SERVIS" MCHJga tegishli yer maydonidan 5 qavatli turar-joy binolari qurilishi	
Buyurtmachi:	SAFAROV OLIM SAVDO SERVIS XK
Bosh loyihachi:	"SAM PROJEKT" MAS`ULIYATI CHEKLANGAN JAMIYAT
Moliyalashtirish manbai:	Buyurtmachining o'z mablag'lari hisobidan
Bosh pudratchi:	Tanlov asosida
Qurilish turi:	Yangi qurilish
Murojaat raqami:	022331

1. Loyihalash uchun asos.

1.1. Payariq tuman qurilish va uy joy kommunal xo‘jaligi bo‘limining 30.04.2024 yil dagi № 1718224-172014-sonli ruxsatnomasi.
1.2. "Arxitektura-shaharsozlik kengashi" ning 11.09.2023 yildagi № 37-sonli yig‘ilish bayoni.
1.3. 2024-05-13y. 1718-1718224-186791-son ARXITEKTURA-REJALASHTIRISH TOPSHIRIG‘I.
1.4. Buyurtmachi tomonidan tasdiqlangan loyixa topshirigi.
1.5. Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 2024-05-31 dagi 128003557-sonli XULOSASI.
1.6. «Samarqand suv ta’minoti» MCHJ Payariq tuman filialining 25.01.2024y. 9 son xulosasi.
1.7. "HUDUDIY ELEKTR TARMOQLARI" AJ SAMARQAND HUDUDIY FILIALI”ning 22.01.2024y.
18224/172 son texnik shartlari
1.8. «Xududgaz Samarqand»GTFning11.04.2022y. 35-02-14-1294 son texnik sharti
1.9. EKOLOGIK EKSPERTIZASI MARKAZI SAMARQAND VILOYATI FILIALIning 29.11.2023y. 1308-son xulosasi.
1.10. “ENGINEYERING MIR_ROSSO”MCHJning muxandislik-geologik sharoitlari xulosasi.

2. Ekspertiza uchun taqdim etilgan materiallar.

2.1 Kitob -1 Umumiy izoh qaydnomasi va unga ilova qilingan hujjatlar.

2.2 Kitob -2 Jamlangan smeta hisobi. (SSR)

2.3 Albom 1- Bosh reja va obodonlashtirish. (GP)

2.4 Albom 2- Arxitektura-qurilish memoriy rejalashtirish qismi, texnologiya qismi (AR, AS, TX)

2.5 Albom 3- Isitish va sovutish, shamollatish tizimlari. Suv va oqova suv tarmoqlari (OViK, VK)

2.6 Albom 4- Elektr tarmoqlari. Yong'indan xabar berish va ogohlantirish. Videokuzatuv tizimlari. (EO, PS, VN).

2.7 Albom 5- Tashqi suv va oqova suv tarmoqlari (NWK).

2.8 Albom 6- Tashqi elektr ta'minoti (TET).

2.9 Albom 7- Kichik arxitekturaviy formalar (KAF).

3. Loyiha yechimlarining qisqacha mazmuni.

Bosh reja:

Hudud quyidagilar bilan chegaradosh:

Shimoldan-asfalt yo'l.

Janub tomondan-turar joy binosi.

Sharq tomondan - asfalt yo'l.

G'arb tomondan - axoli uylari bilan chegaradosh.

Bosh rejada yangi loyihalanayotgan 5 qavatli turar joy binosi , yong'inga qarshi suv gidranti, avtoturargoh, bolalar o'yin maydonchasi, dam olish joylari (bissetka), chiqindi idishi joylashgan.

Eng qulay mikroiqlim sharoitlarini yaratish uchun maksimal ko'kalamzorlashtirish ko'zda tutilgan, ko'kalamzor va daraxtlar yer ostidan o'tuvchi kommunal tizim orqali yoki ariqdagi oqar suvlar orqali sug'oriladi. Bino va inshootlar atrofidagi yo'ldan o't o'chirish mashinalari erkin harakatlanishi uchun loyihalashtirilgan.

Hudud balansi:

Uchastka maydoni – 1350,0m2.

Qurilish maydoni – 800,0 m2.

Qoplamalar maydoni – 326,0 m2.

Obodonlashtirish maydoni – 224,0 m2.

ARXITEKTURA-LOYIHALASH YECHIMLARI:

Samarqand viloyati Payariq tumani Bunyodkor mahallasi hududida joylashgan "SAFAROV OLIM SAVDO SERVIS" MChJga tegishli yer maydonidan 5 qavatli turar-joy binolari qurilishi rejalashtirilmoqda, turar joy binosi hududidan loyihalangan 2 blok turar joy binolari quyidagicha tafsiflanadi. 1 Blok haqida ma'lumotlar: 5 qavat bo'lib, o'qlar bo'yicha 33,2 x 12.6 metr, xonalar poldan shiftgacha 2.8 metrni tashkil etadi. Bino asosiy kirish joyida nogironlar uchun pandus orqali kirish imkoniyati ta'minlangan. Xonalar tartibi. Yo'lak, zinapoya xonasi, yotoqxona, oshxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxonalardan iborat. Ichki pardozlash-sement qumli qorishma bilan suvash, qalinlikda gipsli suvoq qilish so'ngra suvli akril emulsiya bo'yoq bilan ranglash; Shiftlar- beton yuzalarni yelimli shpatlyovka bilan tekislash, suvli emulsiya bilan bo'yash (oq); Ichki eshiklar-qalinligi kamida 6,0 mm bo'lgan MDF kengligi 0.92 va 2.1(h) m eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatlisi o'rnatilsin; Tashqi eshiklar -metall profildan, qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatlisi o'rnatilsin; Derazalar- metal-plastik kamerali 2 qavat oynali, shamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizmli og'ma derazalar

o’rnatish chetlari ko'pik bilan to'liq to'ldirilsin;
Pollar Xoll va yo'laklarda - keramagranit plita bilan qoplash qalinligi 2 sm, plintus uchun keramagranit plitka h=12 sm; (2.0 sm penopleks bilan izolyasiya qilinishi kerak) Pol tarkibi AR bo`limida ko`rsatilgan: Tashqi devorlar-Binoning tashqi devorlari qalinligi 50 mm bo'lgan, hajmiy og'irligi 120k/m3 li PPJ-120 mineral (bazalt) plitalari bilan qoplash. Fasadni arxitekturaviy yechimlari va rangi tasdiqlangan kengash xulosasiga asosan. 2 Blok haqida ma’lumotlar: 5 qavat bo’lib, o’qlar bo’yicha 24.1 x 14,4 metr, xonalar poldan shiftgacha 2.8 metrni tashkil etadi. Bino asosiy kirish joyida nogironlar uchun pandus orqali kirish imkoniyati ta'minlangan.
Xonalar tartibi. Yo’lak, zinapoya xonasi, yotoqxona, oshxona, bolalar yotoqxonasi, mehmonxonalardan iborat. Ichki pardozlash-sement qumli qorishma bilan suvash, qalinlikda gipsli suvoq qilish so'ngra suvli akril emulsiya bo’yoq bilan ranglash; Shiftlar- beton yuzalarni yelimli shpatlyovka bilan tekislash, suvli emulsiya bilan bo’yash (oq); Ichki eshiklar-qalinligi kamida 6,0 mm bo'lgan MDF kengligi 0.92 va 2.1(h) m eshik qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatlisi o’rnatilsin; Tashqi eshiklar -metall profildan, qulflari zamonaviy, bardoshli va sifatlisi o’rnatilsin; Derazalar- metal-plastik kamerali 2 qavat oynali, shamollatish tizimi uchun derazalar ochgichlari murakkab mexanizmli og’ma derazalar o’rnatish chetlari ko'pik bilan to'liq to'ldirilsin;
Pollar Xoll va yo'laklarda - keramagranit plita bilan qoplash qalinligi 2 sm, plintus uchun keramagranit plitka h=12 sm; (2.0 sm penopleks bilan izolyasiya qilinishi kerak) Pol tarkibi AR bo`limida ko`rsatilgan: Tashqi devorlar-Binoning tashqi devorlari qalinligi 50 mm bo'lgan, hajmiy og'irligi 120k/m3 li PPJ-120 mineral (bazalt) plitalari bilan qoplash. Fasadni arxitekturaviy yechimlari va rangi tasdiqlangan kengash xulosasiga asosan.
1 Blok va 2 Blok - binolarning texnik va iqtisodiy ko'rsatkichlari:
Qurilish maydoni – 800,0m2.
Umumiy maydoni – 2860,2m2.
Qurilish hajmi – 14690,0 m3.
Xonadonlar soni – 49 xonadon.
Qurilish uchastkasining xususiyatlari.
Iqlim zonasi - 2.
Tashqi harorat t-13 daraja.
Me'yoriy shamol yuki 0,38 kPa.
Me'yoriy qor yuki - 0,5 kPa.
Seysmiklik 8 ball.
2- turdagi cho’kma tuproqlar.
Tuzilmalarning xususiyatlari.
Asos – tuproq yostig’i H=1600mm. Poydevor – Tasmasimon quyma temir-beton, beton sinfi M B20 Devor - M75 G'isht devorlari M50 qorishmasida kompleks tuzilishga ega. O’zaklar - yaxlit quyma temir -beton, beton sinfi M B20. Rama - yaxlit quyma temir-beton, beton sinfi M B20. Orayopma - zavodda tayorlangan yig'ma temir-beton plitalar. Zinapoya - zavodda tayorlangan yig'ma temir-beton. Tom - yog'och chordoqli ustidan profilli temir varaq.
Konstruktiv yechim.
Bino o'lchamlari o'qlarda.
Blok 33,6x12,7.
Blok 14.4x24.1.
Mustahkam konstruktiv sxemada bajarilgan.

Qurilishni tashkil etish. (POS).

Qurilishni tashkil etish loyihasi amalga oshirildi.

Qurilish bosh rejasi ishlab chiqilgan.

Qurilish xavfsizligi ko'rsatilgan.

Asosiy qurilish ishlab chiqarish usullari, o'rnatish ishlari ko’rsatilgan.

Qurilishning davomiyligi 5,0 oy

Smeta qismi:

Ishlar qiymatini hisoblash Vazirlar Mahkamasining 2013-yil 11-iyundagi "Investitsiya loyihalarini amalga oshirishda shartnomaviy joriy narxlarga o'tish to'g'risida" gi 261-sonli qarori, Vazirlar Mahkamasining 2004-yil 12-maydagi "O'zbekiston Respublikasi hukumatining ayrim qarorlariga o'zgartirish kiritish to'g'risida" gi 226-sonli qarori va SHNQ 4..01.16-09 ga muvofiq shartnoma joriy narxlarida qurilish qiymatini aniqlash qoidalariga muvofiq resurs usulida amalga oshirildi.

Obyektning qiymati joriy narxlarda "O’zbekiston Respublikasi qurilish ishlab chiqarishida foydalaniladigan moddiy-texnik resurslar uchun joriy narxlar katalogi”dan foydalangan holda resurs usulida hisob-kitob hujjatlari asosida, ishlab chiqaruvchi zavodlarning ulgurji-sotish narxi, birjalardagi narxlar va buyurtmachi tomonidan taqdim etilgan ma'lumotlar, buyurtmachi tomonidan tasdiqlab berilgan narxlar dalolatnomasiga ko'ra aniqlandi.

Mehnat xarajatlari (1 kishi/soat uchun) bosh buyurtmachi tomonidan tasdiqlanib taqdim qilingan kelishilgan narxlar dalolatnomasiga, shuningdek O‘zbekiston Respublikasi Davlat statistika qo‘mitasining Samarqand viloyati bo‘yicha ma’lumotlariga ko‘ra, 2024-yil 1-choraklik bilan bo‘lgan davrda “Qurilish” tarmog‘ida o‘rtacha oylik ish haqi darajasining 12 foizi ijtimoiy sug‘urta uchun ajratmalarni hisobga olgan holda 26077,71 so'm qabul qilindi.

4. Loyihalanayotgan obyektning muhandislik ta'minoti.

4.1. Energiya (tejamkorlik) samaradorlik.

Loyiha O'z. Respublikasi davlat arxitektura va qurilish boshqarmasining 31.03.2017 - yildagi bayonnomasi, O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 9 sentabrdagi PF-220 sonli farmoni va QMQ 2.01.04-18, QMQ 2.01.01-22 larga asosan energiya tejamkorlik bo'yicha quyidagi ishlar qo'llanilgan.

1. Tomda issiqlik saqlash qatlami issiqlikni saqlash qatlami uchun 150 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazalt asosli mineralovata (γ=160-175 kg/m³) qatlami solingan.

2. Romlar plastikli 1 kamerali steklopaket (ikki oynali), yon oynalarni devor bilan tirqishi qurilish penasi bilan to'ldirilgan. Ichki otkoslari sement - qum qorishmasi bilan sifatli suvoq qilinib moyli bo'yoq bilan pardozlanagan. Romlarning ichki tokchasiga plastikdan foydalanilgan. Tashqi rom osti tokchasiga suvga bardoshli qilib bo'yalgan ruxlangan tunka qoplamasidan foydalanilgan Tashqi otkoslariga 20 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazalt asosli mineralovata (γ=125 kg/m³) qoplangan va ustidan Travertin bilan pardozlangan.

3. Binoning sokoldan yuqori qavatlar tashqi g'isht devorlari tashqi tomondan 80 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi asosli mineralovata bazalt (γ=120-125 kg/m³) bilan qoplangan; binoni old fasad qismidagi vitrajlar orasidagi elementlarni ichidan 100 mm qalinlikda issiqlik saqlovchi bazalt asosli mineralovata (γ=125 kg/m³) berilgan. Sokol qismida issiqlik izolyatsiyasi uchun qalinligi 40mm bo'lgan 1 qatlam “ПЕНОПОLISTROL” (γ=45 kg/m³) qabul qilingan.

4. Binoning birinchi qavati pollari ostiga issiqlik izolyatsiyasi uchun qalinligi 30 mm bo'lgan 1 qatlam “ПЕНОПОLISTROL” (γ=45 kg/m³) solingan.

5. Elektr simlari va jixozlari O'z. Res. 2011-yildagi Elektr-uskunalarni o'rnatish qoidalari (EO'Q) va QMQ 3.05.06-97, QMQ 2.04.17-19 va ShNQ 2.08.01-05 yildagi meyorlarga asosan

bajarilgan (EO qismiga qarang). Elektr energiyasini tejash maqsadida loyiha ishlarida 550 Vt 48 dona quyosh panellari o’rnatish qabul qilingan. Yoritishga svetodiod chiroqlaridan foydalanilgan.

4.2. Isitish va shamollatish.

Arxitektura qurilish chizmalari asosidagi talablarga muvofiq ishlab chiqilgan. KMK 2.01.04-97 "Qurilish issiqlik muhandisligi" KMK 2.04.05-97 "Isitish, shamollatish va havoni tozalash" KMK 2.08.02-96 "Turarjoy jamoat binolari va inshootlari". Tashqi havoning taxminiy harorati tn=-12°C. Issiqlik tashuvchi issiq suv bo‘lib parametrlari T/b=80°C: T/q=60°C, isitish va ventilyatsiya tizimlarini loyihalash uchun KMK 2.04.05-96 va KMK 2.01.01-94 bo‘yicha qabul qilinadi.

Isitish. Isitish tizimi gorizontal ikki quvurli yuqoridan tarqaluvchi. Issiqlik ta'minoti manbai - 24 kVt quvvatga ega ikkikonturli suv isitish qozoni (20 dona). Qozonlar tabiiy gaz yoqilg'ida ishlaydi. Isitish moslamalari - bimetalik radiatorlar H-500 issiqlik uzatish 1dona seksiya uchun 160 vatt. Issiqlik tashuvchi suv parametrlari 80 - 60 ° C. Sistemada yig'ilgan havoni radiatorlarda o'rnatilgan havo chiqargich krani orqali chiqarib yuboriladi. Quvurlar polipropilen PN25 Ø32-25 mm diametrli GOST 18559-2001 quvurlardan foydalanilgan. Quvurlar devorga va pol ostiga ko'rinmaydigan qilib yotqizilsin. Quvuqlar shiftlar, ichki devorlar va bo'linmalar bilan kesishgan joylarda quvurlarni yonmaydigan materiallardan yasalgan qobiq kiydirish kerak. Qobiqning o'chamlari devorlar, bo'linmalar va shiftlarning sirtlari bilan bir xil bo'lishi kerak.

Ventilyatsiya. Havo chiqib ketish ventilyatsiyasi tabiiy va mexanik usul bilan qabul qilindi. Havoni chiqarib yuborish devordagi shaxtalar ichidagi havo quvurlari (воздуховод) 140x140 mm o'lchamdagi shamollatish shahtasi orqali amalga oshiriladi. Mexanik usulda xavoni chiqarish sanuzellarda va derazasi yo'q xonalarda quyilgan. Toza havo kirish oqimi eshiklarning ochiq deraza teshiklari orqali amalga oshiriladi. Isitish va shamollatish tizimlarini o'rnatish va montaji KMK3.05.01-97 "Ichki sanitariya-texnik tizimlari" ga muvofiq amalga oshiriladi. Yong'inning oldini olish choralari: - yong'in sodir bo'lganda barcha isitish va shamollatish tizimlarini o'chirish; - ventilyatsiya uskunalari va havo kanallari yonmaydigan materiallardan tayyorlangan; Yashirin ish hisobotlari tuzilgan ishlar ro'yxati: - isitish tizimlarini sinovdan o'tkazish; - tizimlarni yuvish; - uskunani sinovdan o'tkazish; - ventilyatsiya uskunalarini sinovdan o'tkazish.

Ichimlik suv va kanalizatciya.

Ichki suv ta'minoti tizimi maishiy va ichimlik ehtiyojlari uchun. Ushbu loyihaning suv ta'minoti va kanalizatsiya qismi KMK 2.04.01-98 "Binolarning ichki suv ta'minoti va kanalizatsiyasi", . KMK 2.04.02-97 "Suv ta'minoti tashqi tarmoqlar va inshootlar" normalari va qoidalariga muvofiq va loyiha topshirig'iga binoan bajarildi.

- ichimlik suvi ta'minoti B1;
- issiq suv ta'minoti T3;
- kanalizatsiya K1;

Ichimlik suv ta'minoti: Texnik shartga asosan mavjud tarmoqqa ulanadi. Ichimlik suvi zaxira bakiga to'planadi va aholiga nasos orqali ta'minlanadi. Suv ta'minoti tarmoqlari GOST 52134-2003 bo'yicha PPR PN-20 Ø50-20mm polipropilen quvurlardan foydalanilgan. Bundan tashqari binoning erto'la qismida po'lat quvurlar GOST 3262-75 bo'yicha Ø57x3,5 mmli quvurlardan foydalanilgan. Shiftlar, ichki devorlar va bo'linmalar kesishmasidagi quvurlar yonmaydigan materiallardan yasalgan g'ilof kiydirilishi kerak. G'iloflarning chetlari devorlar, bo'linmalar va shiftlarning sirtlari bilan bir xil bo'lishi kerak. Bino erto'lasidagi barcha quvurlar izolyatsiya

qilinishi kerak. Issiqlik izolyatsiyasi uchun quvurlar sintetik mineral vatali mato bilan o'raladi qalinligi 40mm, uning ustidan rulonli folgaizol o'raladi. Quvurlarni devor ichiga va pol ostiga ko'rinmaydigan qilib yotqizilsin.

Issiq suv ta'minoti:

Xar bir xonadon uchun ikkikonturli qozon suv isitgichi o'rnatish ko'zda tutilgan. Tarmoqlar GOST 52134-2003 bo'yicha PPR PN-25 Ø20 mm polipropilen quvurlardan tayyorlanadi. Quvurlarni devor ichiga va pol ostiga ko'rinmaydigan qilib yotqizilsin.

Kanalizatsiya:

Santexnika moslamalaridan maishiy va chiqindi suvlari o'zi oqar quvur orqali mavjud tarmoqqa chiqariladi. Ichki tarmoqlar GOST 22689-89 bo'yicha Ø100-Ø50mm plastik kanalizatsiya quvurlaridan tayyorlanadi. Gorizontal uchastkalar chiqishga qarab i=0,02 nishabnik bilan yotqiziladi. Shamollatish stoyaklari tomyopmadan 0.5m baland chiqib turishi kerak. Tarmoqning tiqilishini bartaraf etish uchun quvurlarga tozalash va qayta ko'rib chiqishni ta'minlash kerak.

4.3. Ichki elektr ta`minoti

5 qavatli turar-joy binosining elektr ta`minoti

Hisobiy quvvati -194 kVt

III toifali iste'molchi.

Asosoiy taqsimlash qurilmasi sifatida VRU1 – 21-10 tipidagi shitlar ishlatilgan. Elektr energiyasi hisoblagichlarimi urnatish uchun qavatlarda SHE, TBK uchun SHS va xonadonlarni taqsimlash qurilmasi SHK tipidagi shitlar ishlatilgan. Ob'ektning elektr yoritish qurilmalari sifatida zamonaviy energiya tejamkor LED chiroqlari o'rnatilishi nazarda tutilgan. Harakat sensorlari ko`zda tutilgan. Kvartiralarda osma patronlar ko`rsatilgan. Yoritish tarmoqlari VVGng (3x1,5) mm2 kabeli bilan PVX quvurlarda tashlangan. Elektr tarmoqlari PVX quvurlarida turli kesimdagi VVGng kabeli bilan PVX quvurlarda devor ichi bo`ylab yotqizilgan. Loyihada har bir binoning tom qismiga 48 dona quvvati 550 Vt bo'lgan quyosh panellari o'rnatilishi va tarmoqqa 30 kVt quvvatli invertorlar orqali ulanishi ko'rsatib o'tilgan. Elektr energiyasini hisobga olish EX-518 hisoblagichi va kvartiralar uchun KAIFA MA110 hisoblagichi tomonidan ta'minlanadi. Zaminlash 50x50x5mm po'lat burchak va 40x4mm po'lat belbog'orqali amalga oshirilgan. Tashqi elektr ta`minoti loyihasi ikkinchi bosqichda ishlab chiqiladi.

4.4. ALOQA VA SIGNALASH.

Yong'in signalizatsiyasi. Loyihada Rossiyaning “Fire Automation Design Bureau” MChJ tomonidan ishlab chiqarilgan uskunalar asosida yong‘in signalizatsiyasi tizimi ko‘zda tutilgan. Yong'inni aniqlash uchun IP 212-64-R3, tutunli optik-elektron manzilli yong'in detektorlari, termal maksimal differentsiallar ishlatiladi. himoyalangan binolarning shiftiga o'rnatilgan IP 101-29-PR-R3 manzilli yong'in detektorlari. Mumkin bo'lgan evakuatsiya yo'llarida qo'lda manzil signallari qo'llaniladi.

yong'in detektorlari IPR 513-11-A-R3. Manzilli detektorni uzatish quyi tizimi PPKOPU "Rubezh-2OP" boshqaruv paneli prot.R3 qurilmasi yordamida yong'in signalizatsiya halqalarining holati to'g'risida xabarlarni yig'ish, qayta ishlash va ro'yxatga olishni ta'minlaydi. Vizual uchun "Rubezh-BIU" displey va boshqaruv bloki tizimning holati to'g'risidagi ma'lumotlarni ko'rsatish uchun ishlatiladi. OPOP 124-R3 yong'in va xavfsizlik yorug'lik va ovozli sirena tashqi sirena sifatida ishlatiladi.

Kabel va simli mahsulotlarning quyidagi assortimenti qo'llaniladi.

• Manzilli aloqa liniyalari KPSVVng(A)-LS 2x0,8 kabeli yordamida amalga oshiriladi.

• BR dan IVEPR ga elektr uzatish liniyalari KPSVVng(A)-LS 2x1,5 kabeli yordamida amalga oshiriladi.

• RS-485 interfeys liniyalari KSVPPe 2x2x0.52.

• Ethernet interfeysi liniyalari KSVPV 4x2x0,52 kabeli yordamida amalga oshiriladi.

Yong'in signalizatsiyasi va boshqaruv kabel liniyalarini yotqizish to'xtatilgan shiftlar orqasida yashirin simi bo'lgan gofrirovka qilingan quvurlarda va bo'ylab truba ichida amalga oshiriladi devorlar. Ishchi dizayn, shuningdek, ogohlantirish va evakuatsiyani boshqarish tizimini o'rnatishni ham nazarda tutadi.

5. Loyihani kelishilganligi to'g'risida hujjatlar.

Arxitektura va shaharsozlik kengashi ishchi organining 31.05.2024 yil 128003557- sonli XULOSAsi

Loyiha kelishilgan:

- Samarqand viloyati bosh arxitektori bilan
- Hududiy sanitariya – epidemiologiya xizmati bilan
- Hududiy yong’inga qarshi nazorat xizmati bilan.

6. Ekspertiza natijalari.

Ekspertiza natijalariga ko‘ra qo‘shimcha qiymat solig‘i (QQS) bilan **13 164 286 653** so'm miqdorida taqdim etilgan loyiha qiymati

371 214 090 so'mga kamaytirilib, **12 793 072 563** so‘mni tashkil etadi. Xususan:

Qurilish-montaj ishlari: **10 819 664 139** so'm

Asbob-uskunalar: **602 722 078** so'm

QQS: **1 370 686 346** so'm

6.1. Ekspertizaning izohlari va takliflariga ko'ra, smeta hujjatlariga quyidagi tuzatishlar va qo'shimchalar kiritildi:

- mash/soat resurs ko'rsatkichlari, odamlar/soat mehnat xarajatlari aniqlandi;
- qurilish materiallari va buyumlarga bo'lgan ehtiyoj aniqlandi;
- materiallarni tashish xarajatlari aniqlandi;
- pudratchining boshqa xarajatlari aniqlandi;
- buyurtmachi tomonidan e'lon qilingan joriy shartnoma narxlarida obyektning hisob-kitob qiymati QQS bilan 13164286,653 ming so'm va Buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz, ish va xarajatlar hajmini aniqlashtirish hisobiga 371214,090 ming so'mga QQS bilan kamaytirildi.

Ekspertizaning izohlari va takliflari bo'yicha tuzatilgandan so'ng, obyektning hisob-kitob qiymati joriy shartnoma narxlarida QQS bilan 12793072,563 ming so'm va Buyurtmachining boshqa xarajatlarisiz tashkil etdi.

Bundan tashqari:

Normativ mehnat hajmi – 67377,04 kishi-soat.

6.2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2021 yil 17 sentabrdagi 579-sonli qarorining 3-bob 29-punktiga muvofiq va ShNK 1.03.06-13 da «Davlat ekspertizasiga taqdim etiladigan shaharsozlik hujjatlarining sifati uchun javobgarlik buyurtmachiga (dastlabki ma’lumotlarni loyihalashtirish jarayonida taqdim etilgan dastlabki ma’lumotlarning ishonchliligi bo‘yicha) va ishlab chiquvchiga (qabul qilingan loyiha qarorlari bo‘yicha) yuklatiladi.

6.3. Qayd e'tiladiki, smeta bo'limi mutaxassisi loyihadagi va ekspert ko'rib chiqish uchun taqdim etilgan smeta hujj atlaridagi ish hajmlari uchun javobgarlikni o’z zimmasiga olmaydi.

6.4. Demontaj jarayonida Buyurtmachi qaytgan materiallar mablag'larni belgilangan tartibda hisobga olish kerak.

6.5. Loyiha mualliflari ekspertiza tavsiyasiga binoan Buyurtmachiga tuzatilgan chizmalar va smeta hujjatlarini topshirishlari kerak.

6.6. Ekspert xulosasining amal qilish muddati 2 yil.

7. Xulosalar.

7.1. Ekspertiza natijalarini hisobga olgan holda, barcha me’yor talablari bajarilishi sharti bilan «**Samarqand viloyati Payariq tumani Bunyodkor mahallasi hududida joylashgan "SAFAROV OLIM SAVDO SERVIS" MCHJga tegishli yer maydonidan 5 qavatli turar-joy binolari qurilishi**» - ishchi loyihasi ekspertiza ko'rigi natijalari va 6.2., 6.3., va 6.4. bandlardagi izohlarni hisobga olgan holda ushbu smeta hujjatlarini ko'rib chiqish va tasdiqlash uchun tavsiya etiladi.

7.2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 11.06.03 yildagi 261-son, 03.07.2003 yildagi 302-son qarorlariga va 4..01.16-09 SHNQga muvofiq qurilish qiymati tavsiyaviy tusga ega bo’lib Buyurtmachining bajarilgan ishlar uchun pudratchi bilan o'zaro hisob-kitob qilish uchun asos bo'la olmaydi. Buyurtmachi pudratchi bilan birgalikda nazorat o'lchovi natijalarini hisobga olgan holda belgilangan tartibda asoslovchi hujjatlarga asosan haqiqiy xarajatlar bo'yicha aniqlanadi. Shartnoma narxi va bajarilgan ishlar hajmi bo'yicha yakuniy qaror buyurtmachi va pudratchi tomonidan birgalikda qabul qilinadi.

Bosh ekspert: Sharipov Suxrob Rustamovich.

Ishtirokchi ekspertlar: Abdiyev Mirzabek Sayitmuradovich, Karimov Nemat Xxx, Vladikina Anna Vasilevna, Mirzayev Akmal Ilxomovich, Shamsiyev Ma’mur Maxmudovich, Nits Pavel Aleksandrovich, Abdukarimov Baxodur Istamovich